SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

“ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA DERIVATSION QONUNIYATLAR” MAVZUSIDAGI

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI





O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA DERIVATSION QONUNIYATLAR

Respublika ilmiy-amaliy anjumani
MATERIALLARI
Samarqand shahri, 2026-yil, 16-oktabr

Samarqand – 2026

ALISHER NAVOIYNING “SAB’AI SAYYOR” DOSTONIDAGI TURKIY QATLAMGA DOIR SOMATIZMLAR
ТЮРКСКИЙ ПЛАСТ СОМАТИЗМОВ В ПОЭМЕ АЛИШЕРА НАВОИ «САБЪАИ САЙЁР»
THE TURKIC LAYER OF SOMATISMS IN ALISHER NAVOI'S EPIC POEM “SAB'AI SAYYOR”

Xo‘janiyazova Shahnoza Satimboyevna
Toshkent amaliy fanlar universiteti
dotsenti, f.f.f.d. (PhD)
shahnozaxon8686@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonida qo‘llangan somatizmlar, ya’ni inson tana a’zolarini ifodalovchi leksemalar tarixiy-etimologik, semantik jihatdan tahlil qilingan.

Аннотация: В данной статье соматизмы, то есть лексемы, обозначающие части тела человека, использованные в поэме Алишера Навои «Сабъаи сайёр», проанализированы в историко-этимологическом и семантическом аспектах.

Ключевые слова: *somatizm, bayïr, barmaq, bel, boyïz, maŋlay, ayïz, avuč.*

Abstract: In this article, somatisms, that is, lexemes representing human body parts used in Alisher Navoi's epic poem “Sab'ai Sayyor”, are analyzed from a historical-etymological and semantic point of view.

Keywords: *somatizm, bayïr, barmaq, bel, boyïz, maŋlay, ayïz, avuč.*

Yozma manbalar tilini o‘rganish leksikologiyaning nazariy qoidalarini asoslashga yordam beradi, mazkur tilda so‘zlashuvchi xalqning boshqa xalqlar bilan o‘zaro aloqa, munosabatlarini belgilash va baholashda muhim vositalardan biri sanaladi[89]. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida madaniyatlararo munosabatlar, til lug‘at tarkibini o‘rganish samaradorligini oshirish yo‘llarini izlash maqsadida tilshunoslar aynan somatik leksikaga katta e’tibor qarata boshlaganlar. Mazkur termin ilk bor F.O.Vakk tomonidan fanga olib kiritilgan. Uning ta’kidlashicha, somatizmlar frazeologiyaning eng qadimiy qatlamlaridan biri bo‘lib, har

[89] Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: ФАН, 1983. –Б. 3.

bir tilning keng ishlatiluvchi leksik birliklari sanaladi[90]. Somatizmlarni o‘rganishda bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, A.M.Kochevatkin somatik lekisikaning xususiyati aloqadorligi va nomlanish obyektidan kelib chiqib, ularni guruhlashlarga ajratgan[91]. N.M.Shanskiy esa somatik leksik birliklarni uch guruhga: “kishi tanasini umumiy holda anglatuvchi”, “ichki a’zolarni ifodalovchi va tanasi” hamda uning “a’zolarini ayri-ayri anglatuvchi so‘zlar”ga ajratib o‘rgangan[92]. Somatizmlar har qaysi tilning universal va o‘ziga xos til merosi hisoblanib, millatning qadimiy davrlardan hozirgi zamongacha urf-odati va an’analarini qamrab oladi[93].

Alisher Navoiyning ijodiy merosi o‘zbek adabiy tili tarixini, uning leksik-semantik boyligi o‘rganishda tuganmas manba hisoblanadi. “Sab’ai sayyor” dostonida inson tana a’zolari bilan bog‘liq turkiy qatlamga oid leksik birliklar talaygina. Chunonchi, *al/el, arqa, bayïr, barmaq, bel, boyïz, baš, egin, ilig/ilik, kirpik, kokrag, köz, maŋlay, ayïz, avuč, ayaq/ayay, qol, qaš, qulaq, sač, tirnaq* va h.k.

Turkiy tillar tarixi va etnolingvistikasida inson tana a’zolari nafaqat o‘z, balki ko‘chma ma’noda ham faol qo‘llanganini kuzatish mumkin.

“Orqa suyakning (umurtqa pog‘onasining) pastki qismi” (O‘TIL, I, 383) bo‘lgan *bel* leksemasi E.Sevortyan lug‘atida *bi:l* tarzida talaffuz qilinib, “bel, bel sohasi”, “kamar, belbog‘”, “biror narsaning o‘rtasi”, “tog‘ oralig‘idagi tor yo‘l, dara” (ESTYa, II, 136) ma’nolarida ishlatilgan. Mazkur leksema eski o‘zbek adabiy tilida polisemantik xususiyatiga ega bo‘lib, dostonda to‘rt o‘rinda quyidagi semalarda qo‘llangan:

*Lek sádiq **beliga** baylab lung,*
Suvya kirdi nečükkim bahrya jung (553).

Mazkur baytda Muqbil beliga lungi bog‘lab, xuddi daryoga qayiq tushganday suvga sho‘ng‘iganini ifodalamoqda. Shuningdek, asar so‘z boyligida “belini mahkam bog‘lamoq” iborasi “biror ishga qat’iy kirishish” ma’nosiga ishora qilmoqda:

Čun ibádatya qámatin xam etib,
*Iki-üč yerdä **belni** mahkam etib (357).*

[90] Вакк Ф. О соматической фразеологии в современном эстонском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Таллин, 1964. – 24 с.
[91] Кочеваткин А.М. Соматическая лексика в диалектах эрзянского языка: Лингвогеографический анализ. – М.:1998. – С.120.
[92] Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. – М.: Высшая школа. 1985. –160 с.
[93] Батирхонова М. Соматик фразеологизмларнинг таснифлаш масаласига доир. Илмий ахборот. – Самарқанд, 2020. №4. – Б. 212.

"Tomoqning qizilo'ngach va kekirdak boshlanadigan yeri; tomoq" (O'TIL, I, 723) semasidagi *boyïz* leksemasi qadimgi turkiy tilda *boγuz* tarzida talaffuz qilinib, "bo'g'iz, tomoq" (DTS, 118) ma'nosida qo'llangan: *boγuzdïn kirür ig kišikä kemi / boγuzdïn bolur häm aŋar ot emi* – insonga kasallik va xastalik tomoq (bo'g'iz) orqali kiradi va o'sha tomoq orqali unga dori-darmonlar beriladi (QBK 164). Shuningdek, ko'chma ma'noda ham quyidagicha ifodalangan: "Me'da, oshqozon", "nafsxo'rlik (ochko'zlik)": *bodun tevšigi barča boyzï üčün / telim xalqlar öldi bu boyzï üchün* – xalqning butun harakati oshqozon (nafs) uchundir, / juda ko'p xalqlar mana shu nafsxo'rlik (ochko'zlik) sababli halok bo'ldi (QBK, 256). "ESTYa"da V.Bang ***boγuz*** so'zining kelib chiqishini ***boγ=*** fe'liga bog'lagan (ESTYa, II, 168). O'zbek tilida keyinchalik ikkinchi bo'g'indagi *u* unlisi *i* unlisiga almashgan: *boγ= + uz = boγuz > boyïz* (O'TEL, I, 81). Tahlil etilayotgan leksema eski o'zbek adabiy tilida "bo'g'iz, tomoq; kekirdak, halqum" (ANATIL, I, 348) kabi semalarni o'zida mujassam etgan. Asar so'z boyligida ikki joyda ayni shu ma'noda qaydlanganini kuzatish mumkin:

*Kimsa **boγzïγa** tïγ surgaymu,*
Umr šam'in pulab očurgaymu (372)?

"Ko'z qovoqlari chetida qator joylashgan tuklar" (O'TIL, II, 846) semasini o'zida mujassam etgan *kiprik* leksemasi qadimgi turkiy tilda "ko'p tikan" ma'nosini anglatgan *kirpi* otidan (DLT, I,393; DTS, 309) kichraytirish ma'nosini ifodalovchi *-k* qo'shimchasi bilan hosil bo'lgan. Keyinchalik *rp* undoshlari o'rin almashgan (SSTTN, II, 121): *kirpi+k=kiprik>kiprik* (O'TEL, I, 210). Eski o'zbek adabiy tilida ham ayni leksema orqali ifodalanishi diqqatga molikdir:

***Kirpiki** yoqkim, ul sifat hindu,*
*Sančiban **bayrï** ičrä yüz mondu (377).*

Yuqorida keltirilgan misrada sof turkiycha *bayïr* leksemasi qadimgi turkiy tilda 1) jigar; 2) me'da, qorin; 3) ko'chma. yurak, qalb; 4) qon-qarindosh (DTS, 78), Navoiy asarlari tilida "jigar; qalb; ko'ngil; yurak; ko'ks" (ANATIL, I, 236) ma'nolarida keltirilgan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida "tananing bo'yindan qoringacha bo'lgan old qismi; ko'krak, ko'ks, to'sh" sememasida ishlatilmoqda (O'TIL, I, 322).

Ayaq leksemasi qadimgi turkiy tilda *adaq* shaklida "qadamla=" (DTS, 27), eski o'zbek adabiy tilida *ayaq//ayaγ* tarzida "oyoq, qadam; oxir, poyon; nihoyat, so'nggi" (ANATIL, II, 505) ma'nolarida qo'llangan.

Ushbu somatizm "oyoq, qadam", hamda "oxir, poyon; nihoyat, so'nggi" ma'nosida ishlatilgan:

Taptim ul nav' kámili áfáq,
*Šarh qïldïm tušumni baštin-**ayaq** (315),*

*Čunki šah xilvatïya qoydi **ayaγ,***
Yer uzä tüšti oylakim tufráγ (447).

Hozirgi kunga kelib *ayaq* somatizmi omonim xarakterga ega bo'lib, ma'no doirasi biroz kengaygan: 1) odam, hayvon, qush va umuman jonli organizmlar gavdasining tayanib turishi va yurishi yoki o'rmalashi uchun xizmat qiladigan a'zo; 2) stol, stul, so'ri, karavot kabi buyumlarning yerga tayanib turadigan qismi, poyasi; 3) oxir, odoq 4) fasl, davr va shu kabining oxiri, tugayotgan vaqti; 5) chet, chekka; quyi tomon; etak; 6) uyning, xonaning eshikka yaqin o'rni (O'TIL, III, 569-573).

Sof turkiy so'z bo'lgan *qulaq* somatizmi qadimgi turkiy tilda *qulaq, qulγaq, qulqaq, qulhaq* (DTS, 465), PDPda *qalaq, qalqaq* tarzida talaffuz qilinishi e'tirof etilgan (114). "Devonu lug'otit turk"da keltirilisha, yuqorida keltirilgan talaffuz shakllaridan *qulaq* shaklini to'g'ri deb ta'kidlangan (I, 364). DTSda havola tarzida *qalaq, qalqaq* shakllari ham berilgan (454). Bu leksemaning talaffuz shakllarini qiyoslab, birinchi bo'g'inda unli almashinuvi, shu bo'g'in oxirida undosh almashinuvi va tushishi voqe bo'lganini aytish mumkin. Bu ot asli *qul=* fe'lining "takror" ma'nosini ifodalovchi *-g'a* qo'shimchasi bilan hosil qilingan shaklidan *-q* qo'shimchasi bilan yasalgan; keyinchalik *g'* undoshi talaffuz qilinmay qo'ygan, ikkinchi bo'g'indagi *a* unlisi *â* unlisiga almashgan: *(qul=+g'a=qulg'a)+q= qulg'aq > qulaq > qulâq.* Qadimgi turkiy til aks etgan manbalarda *qul=(qol=)* fe'li mustatqil so'z sifatida keltirilmagan. "Devon"da *qulaqlыg' neң* – "tutqichli narsa" misoli asosida *qul=* fe'li asli "tut=, ushla=". Xuddi shu ma'no o'zbek tilidagi "katta suvdan kichik suv ajraladigan yer" semasini anglatuvchi *qulaq II* so'zi asosida ham yotadi (suvni tutib qolish orni) (O'TEL, I, 574-575). Eski o'zbek adabiy tilida "quloq" tarzida qayd etilgan (ANATIL, IV, 78):

*Köz yüzidä, **qulaq** navásinda,*
Ján γamida, köngül havásinda (358).

Darhaqiqat, dostonda "chin dildan tinglash, so'zning mag'zini chaqishga tayyor bo'lish" *qulaq tut=*, "nasihat tingla=, eshit=" *qulaqqa yet=,* "diqqat bilan tinglamoq, gapga yashirincha quloq solmoq, poylamoq" *qulaq qoy=* kabi frazeologik birliklar ham qo'llangan.

"Odamning bosh terisida o'sadigan qil tolalar qoplamasi va ularning har biri; biror tarzda o'stirilgan va tartibga solingan shunday tolalar majmuyi" (O'TIL, IV, 731) sememasining hozirgi o'zbek tilida *sač* so'zi orqali ifodalanishi ma'lum. Navoiy asarlari tilida "soch, zulf; soch uramlari"ma'noda qo'llanganini quyidagi misol dalillaydi:

Ham qara, ham uzunu ham dilband,
Mahvašim ***sačidin*** *kelib mánand (380).*

"Barmoqlar uchining orqa tomonidagi etga yopishgan, barmoqlarni himoya qiluvchi, shoxsimon moddadan iborat tuzilma, qoplama" (O'TIL, V, 294) ma'nosini ifodalash *tirnaq* leksemasiga yuklatilgan. Bu ot qadimgi turkiy tilda "tirnoq bilan yuz terisini til=" ma'nosini anglatgan *тыр=* fe'lidan *-(ы)ң* qo'shimchasi bilan yasalgan sifatga (otga) *-a* qo'shimchasini qo'shib yasalgan fe'ldan *-q* qo'shimchasi bilan yasalgan (ESTYa, III, 347); keyinchalik ikkinchi bo'g'indagi tor unli talaffuz qilinmay qo'ygan (Devon, III, 393), *ң* undoshi *n* undoshiga, *q* undoshi oldidagi *a* unlisi *â* unlisiga almashgan, *ы* unlisining qattiqlik belgisi yo'qolgan: *(тыр-+ың=тырың) +a =тырыңа]+q=тырыңаq>тырңаq> тырңаq > tirңâq* (O'TEL, I, 341). Eski o'zbek adabiy tilida faqat "tirnoq" sememasida ishlatilgan (ANATIL, III, 232):

Yüzni ***tirnaq*** *ilä fiyár etgan,*
Bargi nasrinni lálazár etgan (418).

"Bir qo'l barmoqlarini bukib, shuningdek, ikki qo'lning kaft va barmoqlarini yonma-yon birlashtirib, barmoqlarni bukib, chuqurcha qilingan holati" sememasi *havuč* leksemasi yordamida ifodalangan (O'TIL, II, 425). Bu ot qadimgi turkiy tilda "olmoq" ma'nosini anglatgan *abu-* fe'lidan *-ch* qo'shimchasi bilan yasalgan: *abuch* (ESTYa, I, 409; PDP, 354). Mahmud Koshg'ariy bu so'zni *avut,* hatto *азыт* shaklida keltiradi (Devon, I, 111). Asli *abu=* fe'li umuman "olmoq" ma'nosini emas, balki "ikki qo'l shapalog'i bilan olmoq" ma'nosini anglatgan bo'lsa kerak; *abuč* oti ana shunday ma'noni anglatgan fe'ldan yasalgan. Keyinchalik bu so'zning tarkibida quyidagi tovush o'zgarishlari voqe bo'lgan: ikki unli oralig'ida *b* undoshi *v* undoshiga almashgan: *abuč > avuč* (DTS, 70), o'zbek tilida bu so'zning boshlanishiga *h* undoshi qo'shilgan: *avuč > havuč, v* undoshi ta'siri bilan *a* unlisi *â* unlisiga almashgan: *havuč > hâvuč* (O'TEL, I, 595). Navoiy asarlari tilida 1) hovuch, kaft, changal; 2) musht, siqim; 3) chapak, qarsak; 4) arzimas ma'nolarida ishlatilgan (ANATIL, II, 501). Doston tarikibida ikki o'rinda "hovuch, kaft, changal; chapak, qarsak" semasida aks etgan:

*Yoq iligimdä bir **avuč** tufraq.*
Yasamaq kám gunbazi nuh taq(304),

Andä Nuširván kerak baqqay,
*Bašini iryatib **avuč** qaqqay (328).*

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonidagi turkiy qatlamga oid tana a’zolarini ifodalovchi somatik leksemalar salmoqli o‘rin egallagan. **Xususan, somatizmlarning frazeologik birliklar, polisemantik so‘zlar**, **omonimlar shaklida** namoyon bo‘lishi adibning badiiy tafakkur ko‘lami va lisoniy mahoratini ko‘rsatuvchi bosh mezondir. Muallif inson a’zolari ifodalash orqali nafaqat tasvir izchilligini ta’minlagan, balki tilning yashirin ifoda imkoniyatlarini ham yuzaga chiqargan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Alisher Navoiy. Sab’ai sayyor. X jildlik, VII jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2013. – B. 275-664.
2. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: ФАН, 1983. –Б. 3.
3. Вакк Ф. О соматической фразеологии в современном эстонском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Таллин, 1964. – 24 с.
4. Батирхонова М. Соматик фразеологизмларнинг таснифлаш масаласига доир. Илмий ахборот. – Самарқанд, 2020. №4. – Б. 212.
5. Кочеваткин А.М. Соматическая лексика в диалектах эрзянского языка: Лингвогеографический анализ, – М.:1998. – С.120.
6. Xo‘janiyazova Sh. Alisher Navoiyning manoqib asarlarida somatizmlarni ifodalovchi omonimlar xususida. “Antropotsentrik tilshunoslikning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Farg‘ona. 2023. –B. 287-289.
7. Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. – М.: Высшая школа, 1985. –160 с.

Shartli qisqartmalar

ANAL – 2013. – 2006. Fozilov E.I. Alisher Navoiy asarlari lug‘ati. – Toshkent.

ANATIL – 1983-1985. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. I-IV. –Toshkent: Fan.

D.O.Bekmirzayeva, JEFRI CHOSERNING “KENTERBERI HIKOYALARI” ASARIDA HIKOYAT JANRINING POETIK XUSUSIYATLARI (QOLIBLI HIKOYALASH, FABLIO VA IJTIMOIY TABAQALAR HAJVI)……	*609*
F.U.Axtamova, “MAJOLIS UN-NAFOIS” VA “THE LIVES OF THE ENGLISH POETS” (“INGLIZ SHOIRLARINING HAYOTI”) ASARLARIDA XRONOLOGIK VA KOMPOZITSION QURILISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI……	*613*
G.I.Kurbonova, METAMORFOZA TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI……	*618*
O.M.Jalilov, INGLIZ VA O‘ZBEK FOLKLOR JANRLARINING LISONIY TUZILISHI VA JANR HOSIL QILUVCHI BELGILAR……	*622*
Sh.S.Xo‘janiyazova, ALISHER NAVOIYNING “SAB’AI SAYYOR” DOSTONIDAGI TURKIY QATLAMGA DOIR SOMATIZMLAR…..	*627*
O.S.Muhammadjonov, SURVIVING WITHOUT HEALING: THE ARTISTIC REPRESENTATION OF TRAUMA IN COLSON WHITEHEAD’S ZONE ONE……	*634*
ABDURAHMON JOMIYNING “YUSUF VA ZULAYHO” DOSTONIDA OBRAZLAR TIZIMI VA MOHIYATI……	*640*
A.A.Butayev, “ULUG‘BEK XAZINASI” ROMANIDAGI TURKIY LEKSIKA……	*644*
A.K.Uzakova, LEXICAL VALENCY AND THE TRANSFORMATION OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN ENGLISH LITERARY PROSE……	*652*
A.K.Uzakova, LEXICAL CHOICE AND THE DEVELOPMENT OF CHARACTER VOICE IN ENGLISH LITERARY PROSE……	*657*
G.G.Uzakova, VILYAM SHEKSPIRNING HAMLET VA ABDURAUF FITRATNING ABULFAYZXON TRAGEDIYALARIDA HOKIMIYAT LEGITIMLIGI VA SIYOSIY FOJEA POETIKASI……	*662*
M.F.Zayniddinov, ABDULLA QAHHOR IJODIDA KINOYANING BADIIY-ESTETIK FUNKSIYASI……	*670*
B.X.Qodirova, THE FORMATION OF AMIR TEMUR’S IMAGE IN THE EUROPEAN HISTORICAL AND LITERARY CONSCIOUSNESS……	*673*